

BO'LAJAK O'QITUVCHINING KASBIY IMIJI

Otanazarova Mohirahon Xamidbekovna

Buxoro davlat universiteti 1-kurs tayanch doktoranti

Annotatsiya. Maqolada bugungi kunda jamiyatimiz talab qilayotgan, zamon talablariga javob beradigan, yuqori malakali har tomonlama yetuk bo'lajak pedagog kadrlarimizning kasbiy imijiga qo'yilayotgan talablar va ularni shakllantirish borasida fikr yuritilgan. Bo'lajak o'qituvchilarining kasbiy imijini shakllantirishning dolzarbliji hamda pedagogogning kasbiy imijini takomillashtirishda e'tibor berish kerak bo'lgan jihatlar haqida tavsiyalar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: o'qituvchi, imij, shaxsiy fazilat, kasbiy fazilat, notiqlik, ijodkor, tanqidiy baho, ilmlilik, metodika,adolatli.

Kirish. Yurtimizda amalga oshirilayotgan ta'lim-tarbiya sohasidagi strategik vazifalarning asosiy yo'nalishi mustaqil fikr yurita oladigan, jamiyat va shaxs manfaatlari uchun zarur bo'ladigan rivojlanish istiqbollarini aniq belgilaydigan mutaxassislar tayyorlash masalalariga qaratilganligi bilan tavsiflanadi. Bugungi kunda o'qituvchilar ta'lim-tarbiya jarayonida har tomonlama o'quvchilarga o'rnak bo'la olishi va ularni bilim oilishga undashi lozim. Shu nutqai nazaridan jamiyatimizda pedoglarning tayyorgarligi borasida ham muhtaram Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, "jamiyatning eng dolzarb muammolarini yuqori saviyali mutaxassis kadrlar hal etishi, ularning kasbiy bilimdonligi, professional kompetentligi, yuksak mahorati, boy ma'naviy axloqiy qiyofasi, madaniy saviyasiga bog'liq ekanligi isbot talab qilinmaydigan holatdir"¹.

Assosiy qism. Bugungi kunda jamiyat talab qilayotgan har tomonlama yetuk, erkin fikrlaydigan, o'z ustida ishlaydigan, bilimi oshirib boradigan, madaniyatli, go'zal fel-atvorga ega, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalana oladigan kadrlarni yetishtirish borasida bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda. Har bir kasbni egallayotgan kadr, eng avvalo, shu kasbni sevmog'i lozim. Kasblar orasida o'qituvchilik kasbi eng muhimidir. Bu kasbni egallayotgan bo'lg'usi o'qituvchilarining kasbiy imijini to'g'ri shakllantirish orqali yetuk kadrlarni jamiyatimizga yetishtirib berishimiz mumkin. O'qituvchining shaxsini shakllantirish borasida bir qancha pedagog olimlarimiz o'z fikr-mulohazalarini bayon qilganlar. Dastlab ularning fikrlariga e'tibor qaratsak.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8-oktyabr "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-soni Farmoni.

Kasb-hunar tarbiyasining ijtimoiy – tarixiy asoslari sharq mutafakkirlari jumladan, “Ma’mun akademiyasi” deb nomlangan Xorazmdagi ilmiy markazda (IX-XII asrlar) faoliyat ko’rsatgan Muso Xorazmiy, Ahmad al-Farg‘oniy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Zamaxshariy, Burhoniddin Marg‘iloniyalar ijodida yoshlarga kasbiy ta’lim-tarbiya berish shaxsning qiziqishlari, jamiyat talablari va irsiy omillar bilan bog‘liqligi ilmiy-nazariy jihatdan asoslab berilgan.

Kasbga yo‘naltirish, kasb tanlash, kasbiy tayyorgarlik masalalari pedagog, psixolog olimlar tomonidan keng doirada tadqiq qilingan bo‘lib, ular o‘ziga xos yondashuvlarni ilgari suradilar. Jumladan, V.A. Slastenin, N.N. Azizzodjaeva, J.G. Yo‘ldoshev innovatsion texnologiyalar orqali kasbiy tayyorgarlikni shakllantirish; Sh.E.Qurbanov, E.A.Seytxalilov, F.YUzlikaev, N.Muslimov, SH.SHarirov, N.Egamberdievalar kasbiy ta’limni shaxs, jamiyat va ishlab chiqarish o‘rtasidagi integratsiya asosida yo‘lga qo‘yish muammolarini o‘rganganlar.

Abu Rayhon Beruniyning o‘qituvchi faoliyatiga bergen izohidan ham ko‘rib o‘tamiz. Beruniy yoshlarni o‘qitish uchun o‘qituvchi tanlash ota-onaning birinchi va asosiy vazifasi deb bilgan. Buning uchun o‘qituvchi xushmuomala, rostgo‘y, o‘z fanini va o‘qitish qoidalarini yaxshi biladigan, pokiza, yurish va turishda namuna bo‘lishini talab etadi. Agar, – deydi Beruniy, – tarbiyachining o‘zi o‘rnak bo‘lmasa, aytgan gapiga o‘zi rioya etmasa, uning talabi va tarbiyasi samarasizdir . Yangi davr pedagogikasining asoschilaridan sanalmish Mahmudxo‘ja Behbudi, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat asarlarida ham ta’lim-tarbiya va bu jarayondagi o‘qituvchining o‘rni va xizmatlari davrning ijtimoiy-siyosiy hayotidan kelib chiqib, o‘ziga xos ravishda talqin etilgan.

Abdulla Avloniy o‘qituvchining shaxsiy va kasbiy fazilatlariga keng ta’rif berib: tarbiyachining shaxsiy fazilatlari, ya’ni axloqli, odobli, bilimdonligi, ziyrakligi, topqirligi, farosatliligi, aql-zakovatliligi ta’lim-tarbiya jarayoni uchun asosiy negiz bo‘lsa, ijodiy izlanish o‘qish va kasbiy sifatlaridan ekanligini uqtiradi.²

Abdurauf Fitratning asarlarida ham ta’lim-tarbiya masalalariga alohida e’tibor beriladi. O‘qituvchi talabalarning o‘zaro muloqotini tashkil etish, olib borishda eskicha qolipdan chiqib yangi islohotlar qilish kerakligi, buning uchun esa, mudarrislarning (eski maktab o‘qituvchisi) nodonligiga chek qo‘yib, ularni o‘qitish usullarini talabalarning individual qobiliyatlariga qarab tubdan o‘zgartirish zaruratini bayon qiladi .³

² A.Avloniy.Turkiy guliston yohud axloq.-T.:O‘qituvchi,1992.B-16

³ Pedagogika tarixi / Tuzuvchilar: K.Hoshimov, M.Inomova, S.Nishonova, R.Hasanov.– T.: O‘qituvchi, 1996. B-36-40.

Yuqorida keltirib o'tilgan bobolarimizning bo'lajak o'qituvchilarimizning o'zida mujassamlashtirmog'i lozim bo'lgan kasbiy sifatlari va o'qituvchilarimizning imiji borasidagi fikrlarini bilib oldik. Demak, qadim zamonlardan to bugungi kunga qadar o'qituvchilarimizga bo'lgan talablar ortsa ortganki, lekin hech kamaymagan. Buning sababi kelajak avlodni, jamiyatning ertangi kuniga javobgar bo'lgan shaxslarni tarbiyalovchi inson har tomonlama yetuk bo'lmog'i lozim. Zamonaviy pedagogikada bo'lg'usi o'qituvchilarimizning kasbiy imiji qanday ko'rinishga egaligiga e'tibor qaratamiz.

Ingliz tilidan «image» so'zining o'zbek tiliga tarjimasi «ko'rinish», «qiyofa», «siymo», «timsol» ma'nolarini anglatadi. Ushbu tarjimadan kelib chiqib, imij bu aniq bir insonga munosabat bildirishda insonlarning tafakkurida namoyon bo'ladigan siymodir. Imij bu faqatgina tashqi ko'rinishgina emas, balki insonnning nutqi, muomalasi orqali namoyon bo'ladigan ta'lim-tarbiyaviy jihatlarni ham qamrab oladi. O'qituvchining imiji haqida fikr yuritar ekanmiz, o'qituvchida mujassam bo'lmog'i kerak bo'lgan xislatlarni sanab o'tamiz. Fikrimcha, quyida keltiriladigan xislatlar zamonaviy o'quvchining imiji bo'la oladi.

Birinchi o'qituvchining nutqi ravon (notiq) bo'lmog'i lozim. O'qituvchi nutq bildirayotganida nutq sofligiga, nutq aniqligiga, nutq ifodaliligiga va nutqning sofligiga e'tibor bergen holga fikr bildirishi kerak. O'qituvchi ko'proq bolalar bilan tushuntirish orqali ilm ulashganligi uchun ham notiq bo'lishi kerak. Nafaqat ilm ulashish balki, o'quvchilarning tarbiyasiga ham so'zlar orqali ta'sir o'tkaziladi. Fransuz tilshunosi P.Buast: "Gapirayotgan odam ekadi, eshitayotgan odam hosil yig'adi", – degan edi. Demak, har bir pedagog ham yaxshi hosil olishni xohlasa o'quvchilarga jonli nutq bayon etishi, ularni so'zları orqali ishontirishi lozim.

Ikkinci o'qituvchining tashqi ko'rinishi. O'qituvchi o'quvchilarda ilk taassurotni birinchi bora darsga kirganda uning kiyinishi, o'zini tutishi, nutqi orqali xotirasiga muhrlanadi. Dastlab o'quvchilarni diqqati albatta, tashqi ko'rinishga baho berish orqali namoyon bo'ladi. O'qituvchi nomiga munosin tarzda kiyinish madaniyati ham go'zal bo'lmog'i kerak. Ayollar va erkaklarga xos bo'lgan klassik kiyimlardan kiyish maqsadga muvofiqli. O'qituvchi turli rang-barang kiyimlardan, ko'zga tashlanuvchi taqinchoqlardan, o'quvchini diqqatini jalb qiluvchi ortiqcha bezaklardan foydalanmasligi zarur. O'qituvchining dars jarayonida turli ortiqcha yuz mimikalari, qo'l, oyoq va boshqa harakatlardan foydalanishi ham darsning ishonarsiz va samarasiz bo'lishiga olib keladi. Bu narsalar o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirishida xalaqt beradi.

Uchinchi o'qituvchilarning ilmlı bo'lishi. O'qituvchi har bir o'rgatishi kerak bo'lgan bilimlar ilmiy asoslangan, dalillar asosida keltirib tushuntirib berishi kerak. Yani har bir gapi fanda isbotlangan bo'lishi kerak. O'qituvchi o'zining ilmiy dunyoqarashi orqali o'quvchilarda ham ilmiy dunyoqarashni shakllantirishga, atrofni

o‘rab olgan ob’ektiv borliqni o‘rganish, bilishga bo‘lgan qiziqishlarni o‘sirish, shuningdek ularning mustaqil ravishda o‘z ma’lumotlarini oshirishga mustaqil ilmiy ishlar olib borishga bo‘lgan qiziqishlarini oshiradi.

To‘rtinchi o‘qituvchining metodik usullardan foydalana olishi. O‘qituvchi darsning bosqichlariga ahamiyat bergen holda darsni to‘g‘ri tashkil qila olishi, o‘quvchilarni darsga jalb qilishi uchun turli didaktik o‘yinlardan, metod va usullardan foydalangan holda dars mashg‘ulotlarini olib borishi kerak. Har bir dars takrorlanmagan holda tashkil qilinmog‘i lozim. Interfaol metodlar o‘quvchilarda darsga bo‘lgan qiziqishini oshirishi, turli didakdik o‘yinlar yordamida murakkab bilimlarning oson o‘zlashtirilishiga va o‘quvchilarning shaxsiy sifatlarini ham shakllanishi va rivojlanishiga olib keladi. Shu boisdan, bo‘lg‘usi o‘qituvchilarimiz metodik bilimlarga ega bo‘lishi talab qilinadi.

Beshinchi o‘qituvchining zamon bilan hamnafas bo‘lishi. O‘qituvchi doimo o‘z ustida ishlab, o‘qib- o‘rganib bormog‘i, zamonaviy axborot-texnologiyalardan foydalanishi lozim. Bugungi kunda barcha jabhalarga axborot-texnologilari kirib keldi, shu jumladan, o‘qituvchilik kasbining ajralmas qismidir. O‘qituvchi hamisha yangiliklarni o‘raganishi va uni o‘quvchilarga yetkazishi, targ‘ib qilib borishi kerak. Chunki, bugungi avlod barcha texnologiyadan foydalana oladi. Shuning uchun ham o‘qituvchi o‘qib- o‘rganib bir qadam oldinda turishi kerak. Pedagog shundagina o‘quvchilani ishontira olishi va bilimlarni o‘zlashtirishga qiziqishini uyg‘otishi mumkin.

Oltinchi o‘qituvchining ijodkor bo‘lishi. Har doim yangicha dars o‘tish usullarini yaratib, o‘quvchilar o‘zlashtirishiga moslagan holda turli usullarni yaratishi lozim. Ijodkorlik nafaqat, darsni tashkillashtirish borasida balki, sinfdan tashqari mashg‘ulotlarni tashkil qilishda, turli muaamoli yoki qiziqarli vaziyatlar yuzaga kelganda ularga oydinlik kiritish maqsadida ham o‘qituvchiga yordamga keladigan xislatdir. Ijodkor o‘qituvchi tarbiyalayotgan o‘quvchilarda ham turli ijodkorlik namunalari paydo bo‘la boshlaydi.

Yettinchi o‘qituvchi o‘zini tanqidiy baholay olishi. O‘qituvchi qilayotgan ishida hamisha qandaydir bir kamchilik yuzaga kelmasligi uchun doimo o‘ziga nisbatan tanqidiy tahlil olib borishi kerak. Shunda o‘qituvchi faoliyatida doimo o‘sish bo‘ladi. Negaki, o‘z xatolarini to‘g‘irlab boradi va takrorlamaydi. Yuz bergen kamchiliklarni o‘qib- o‘eganib yangicha usullari yoki yechim topgan holda ta’lim sifatini yanada yaxshilab boradi.

Sakkizinchi o‘qituvchi o‘quvchilarga adolatli munosabat bildirishi. O‘rgatuvchi, kelajak avlodga ta’lim-tarbiya beruvchi insonlarga eng kerakli jihatlardan biri bu albatta adolatli bo‘lishdir. Har qanday vaziyatda ham o‘qituvchi adolat bilan yondashsa, o‘quvchilar ham adolatli bo‘lishga o‘rganishadi.

Xulosa. Bugungi kunda davlatimiz tomonidan ta’limga katta e’tibor qaratilmoqda. Bu e’tibor va etiroflar pedagoglarning o‘z ustida yanada ko‘p ishlashi, tinmay izlanishlar olib borishi va yosh kadrlarimizning ish bilan taminlanishiga imkoniyat yaratilmoqda. Bu esa, pedagog kadrlarimizning oldiga yanada ko‘p mas’uliyat va yangi vazifalarni qo‘yadi. Vaqt o‘tishi bilan bo‘lg‘usi o‘qituvchilarimizning kasbiy imijlari ham takomillashib boraveradi. Yuqorida sanab o‘tgan jihatlarimizdan shuni ayta olamanki, bo‘lajak o‘qituvchilarimizning kasbiy imijini yaratish bir usul orqali oshuvchi jarayon emas.

Jamiyat talab qilayotgan bo‘lg‘usi pedagoglarimizning kasbiy imijini yaratishda quyidagilarga ahamiyat beriladi:

- Jamiyat talabini o‘rganish;
- O‘qituvchilarimizga dunyo ta’lim yutuqlarini o‘rganib, o‘zbek ta’lim tizimiga moslashtirishgan holda tatbiq qilish;
- O‘rganuvchi fikrini o‘rganish;
- O‘qituvchi imijini yaratishda doim bir xil qoidaga amal qilmaslik.

Foydalangan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8-oktyabr “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmoni.
2. Avloniy.Turkiy guliston yohud axloq.-T.:O‘qituvchi,1992.B-16
3. Pedagogika tarixi / Tuzuvchilar: K.Hoshimov, M.Inomova, S.Nishonova, R.Hasanov.– T.: O‘qituvchi, 1996. B-36-40
4. Magistrlik dissertatsiyasi / G.Xusnidinova.-Toshkent, 2014.
5. Umumiy pedagogika / Mualliflar: R.A.Mavlonova, N.H.Rahmonqulova, K.O.Matnazarova, M.K.Shirinov, S.Ilfazov.- T.: Fan va texnologiyalar, 2018

Elektron manbalar:

www.ziynet.uz

www.ede.uz

www.fayllar.uz